
YOZ O'TMOQDA SOZ



So'x tumani XTB tasarrufidagi 24-sonli umumiy urta ta'lim maktabi qoshida maktab o'quvchilarini ta'til kunlarida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida "YuLDUZChA" nomli yozgi kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohi tashkil etilgan.

Ushbu oromgohda 50 nafar maktab o'quvchilari dam olishmoqda. Ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida xar xil mashg'ulotlar, sport musobaqalari, qiziqarli uyinlar o'tkazilib kelinmoqda. To'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, barcha mashg'ulotlar malakali mutaxassislar tomonidan o'tkazilayapti. Tuman XTB mudiri vazifasini bajaruvchi B. Huseynovning ma'lumotiga ko'ra, bunday oromgohlar sektorlar kesimida tashkil etilgan bo'lib, ayni kunda 2, 11 va 12-sonli UO'T maktablarida ham shunday oromgohlar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2021-06-14 16:20:33